

Date: 25<sup>th</sup> October-2025

TERGOV JARAYONIDA AYBLANUVCHINING HUQUQ VA  
MAJBURIYATLARI

Odilov Nozimjon Jumanazar o'g'li

[odilovnozimjon216@gmail.com](mailto:odilovnozimjon216@gmail.com)

Mehnat va Ijtimoiy Munosabatlar Akademiyasi o'qituvchisi

**Annotatsiya.** O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida mustahkamlab qo'yilgan ayblanuvchining huquq va majburiyatlari mazmunan yoritiladi. Ayblanuvchining protsessual maqomi, himoya huquqi, shaxsiy erkinlik va adolatli sudlov kafolatlari tahlil qilinadi. Mazkur huquq va majburiyatlar tizimi jinoyat protsessining muhim tamoyillaridan biri bo'lib, aybsizlik prezumpsiyasi, qonun ustuvorligi va inson huquqlarini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** ayblanuvchi, himoya huquqi, jinoyat protsessi, protsessual maqom, sudlov, advokat, huquq va majburiyat.

**Mavzuning dolzarbligi:** O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining asosiy yo'nalishlaridan biri — inson huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, adolatli sudlovni ta'minlash hamda aybsizlik prezumpsiyasi tamoyilini hayotga tatbiq etishdir. Shu nuqtai nazardan, jinoyat protsessida ayblanuvchining huquqiy maqomini aniqlash va unga qonun bilan kafolatlangan huquq va majburiyatlar tizimini samarali qo'llash masalasi bugungi kunda nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Ayblanuvchining huquqlarini ta'minlash — bu nafaqat uning shaxsiy manfaatlarini himoya qilish, balki butun sud-huquq tizimining adolat va qonuniylik tamoyillariga amal qilayotganini ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkichdir. Chunki jinoyat protsessi faqat ayblovg'a asoslanmasdan, balki himoya va e'tiroz huquqlarining teng ta'minlanishi orqali adolatni ro'yobga chiqaradi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida inson huquqlarini kafolatlash sohasida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, Prezident farmonlari, sud-huquq tizimini isloh qilish dasturlari, advokatura institutini rivojlantirishga qaratilgan qarorlar qabul qilinmoqda. Bu islohotlarning barchasi jinoyat protsessida ayblanuvchining huquqiy maqomini yanada mustahkamlashga, himoya huquqini kengaytirishga hamda tergov va sud jarayonlarida oshkoralikni kuchaytirishga qaratilgan. Shu bois, JPKning 46-moddasida belgilangan ayblanuvchining huquq va majburiyatlari mazmunini o'rganish, ularning amaldagi huquqiy tartibdagi o'rni va amaliy ahamiyatini tahlil qilish — zamonaviy O'zbekiston jinoyat-protsessual tizimining demokratik rivojlanishida muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur mavzuning dolzarbligi, shuningdek, ayblanuvchining huquqlari buzilishi holatlarining ayrim tergov va sud amaliyotlarida uchrab turishi bilan ham izohlanadi. Shu sababli, ushbu sohada huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, nazariy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish hamda xalqaro standartlarga mos himoya tizimini mustahkamlash zarurati mavjuddir.



Date: 25<sup>th</sup> October-2025

**Tadqiqot maqsadi va usullari:** Ushbu tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 46-moddasida belgilangan ayblanuvchining huquq va majburiyatlarini chuqur tahlil qilish, ularning amaldagi huquqiy tizimdagi o'rni, mazmuni va ahamiyatini yoritishdan iborat. Tadqiqot shuningdek, ayblanuvchining huquqlarini ta'minlashda uchrayotgan amaliy muammolarni aniqlash, xalqaro standartlar bilan qiyosiy o'rganish hamda ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat: ayblanuvchining protsessual maqomini belgilovchi normativ-huquqiy asoslarni o'rganish; O'zbekiston Respublikasi JPK 46-moddasi mazmunini tahlil qilish; ayblanuvchining huquq va majburiyatlari tizimining xalqaro standartlarga muvofiqligini aniqlash; tergov va sud amaliyotida ushbu huquqlarni ta'minlashda uchrayotgan kamchiliklarni aniqlash; milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Ushbu tadqiqotda quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuv va metodlardan foydalanilgan: Normativ-huquqiy tahlil metodi orqali JPKning 46-moddasi hamda unga bog'liq qonun normalarining mazmuni, ularning o'zaro aloqasi o'rganildi; qiyosiy-huquqiy metod orqali xorijiy davlatlarning jinoyat-protsessual qonunchiligi va xalqaro huquqiy normalar (xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Yevropa inson huquqlari konvensiyasi) bilan qiyosiy tahlil amalga oshirildi; tizimli yondashuv orqali ayblanuvchining huquq va majburiyatlari jinoyat protsessining umumiy tamoyillari bilan bog'liq holda o'rganildi; Mantiqiy va tahliliy metod orqali nazariy g'oyalar, ilmiy qarashlar va amaliyotdagi muammolar asosida umumiy xulosalar chiqarildi; empirik (amaliy) tahlil orqali sud va tergov amaliyotidagi holatlar asosida qonun qo'llashdagi muammolar o'rganildi.

Tadqiqotning natijalari: O'zbekiston Respublikasi normativ hujjatlarida ayblanuvchining huquq va majburiyatlariga doir huquqiy normalar o'rganildi, xorijiy davlatlarda ayblanuvchining huquq va majburiyatlari bo'yicha yaratilgan huquqiy tizimning zamonaviy holati va undan ko'zlangan maqsadlar tahlil qilindi va olingan tahlil asosida xalqaro normalar holati va mavjud milliy qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan xulosa chiqarildi.

**Tadqiqotning ilmiy-uslubiy ahamiyati:** Tadqiqot ishida ko'rib chiqilgan muammolarning dolzarbligiga, xulosalar va takliflarning asoslantirilganlik darajasiga qarab tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati belgilanadi. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda bayon etilgan qoidalar va xulosalardan tergov sohasidagi qonunchilik normalarini va huquqni qo'llash amaliyoti mexanizmini takomillashtirishda, ushbu sohada davlat tomonidan tartibga solish sohalarining oqilona nisbatini topishda foydalanilishi mumkin.

**Xulosa:** O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 46-moddasi ayblanuvchining protsessual maqomini, uning huquq va majburiyatlarini aniq belgilab beruvchi asosiy huquqiy norma sifatida jinoyat protsessining adolatli, qonuniy va insonparvar tamoyillarini amalda ta'minlashga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ayblanuvchining huquqlari tizimi nafaqat uni ayblovdan himoya qilish vositasi, balki butun jinoyat-protsessual faoliyatning muvozanatini saqlab turuvchi



**Date: 25<sup>th</sup>October-2025**

mexanizm hisoblanadi. Xususan, himoyachiga ega bo'lish, ko'rsatuv berishdan bosh tortish, sud majlislarida ishtirok etish, shikoyat berish va sud bayonnomasi bilan tanishish kabi huquqlar ayblanuvchining konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Shu bilan birga, ayblanuvchining majburiyatlari ham uning protsessual huquqlari bilan uyg'un holda belgilangan bo'lib, tergov va sud jarayonining qonuniyligi, tartibi hamda ob'ektivligini ta'minlashga qaratilgan. Bugungi kunda sud-huquq tizimidagi islohotlar sharoitida ayblanuvchining huquq va majburiyatlarini yanada mustahkamlash, ularni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish, advokatura institutining rolini kuchaytirish hamda amaliyotda huquqlarning to'liq ta'minlanishini nazorat qilish zarurati dolzarbligicha qolmoqda. Shunday qilib, ayblanuvchining huquq va majburiyatlari to'liq ta'minlangan sharoitdagina jinoyat protsessining asosiy maqsadi — adolatni qaror toptirish, inson sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish to'liq amalga oshiriladi. Shu sababli mazkur yo'nalishda qonunchilikni yanada takomillashtirish va amaliy mexanizmlarni mustahkamlash hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

